

DORIVOR MOYCHECHAK – MATRICARIA CHAMOMILLA

Usmonova Gulshod Ibrohimovna

Buxoro Davlat Universiteti o'qituvchi

usmonovagulshod@gmail.com

Son of Toymurad Ravshanov Khamrokul

Student of Bukhara State University, Uzbekistan

hamroqulravshanov625@gmail.com

Adizov Rahimkulkhan Azimovich

Student of Bukhara State University, Uzbekistan

rahimqulkhonadizov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Dorivor moychechak – Matricaria chamomilla o'simligining kimyoviy tarkibi, o'ziga xos dorivorlik xususiyatlari va xalq tabobatida ishlatilishi haqidagi fikrlar ilmiy asoslab berilgan. Jumladan, sistematikasi, botanik tasnifi, geografik tarqalishi, o'stirilishi haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Dorivor moychechakning turli ekologik muhitlarda ya'ni, yorug'likda yoki soyada o'sishi, uning o'sishiga harorat, namlik, shamol ta'siri va tuproq unumdorligining ta'siri o'rganildi.

Kalit so'zlar: panikulyar, xamazulen, ichaklar spazmi, flavanoid, karotin, geterotsiklik, kapitula





MEDICAL PLANT – MATRICARIA CHAMOMILLA

Annotation: The chemical composition, specific medicinal properties and use in folk medicine of *Matricaria chamomilla* plant are scientifically substantiated in the article. In particular, valuable information is provided about systematics, botanical classification, geographical distribution, cultivation. The growth of medicinal chamomile in different ecological environments, that is, in light or shade, the influence of temperature, humidity, wind and soil fertility on its growth was studied.

Keywords: paniculate, chamazulen, intestinal spasm, flavanoid, carotene, heterocyclic, capitula

РОМАШКА ЛЕКАРСТВЕННАЯ — MATRICARIA CHAMOMILLA

Аннотация: В статье научно обоснованы химический состав, специфические лечебные свойства и применение в народной медицине растения ромашки ромашки. В частности, даются ценные сведения о систематике, ботанической классификации, географическом распространении, выращивании. Изучено развитие ромашки лекарственной в различных экологических средах, то есть на свету и в тени, влияние температуры, влажности, ветра и плодородия почвы на ее рост

Ключевые слова: метельчатая, хамазулен, кишечный спазм, флаваноид, каротин, гетероциклический, капитула.

KIRISH: Bizga ma'lumki, dorivor o'simliklar odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklar hisoblanadi. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10–12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq



o'simlik turining kimyoviy, farmakologik xossalari tekshirilgan. Jumladan, O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llanadigan dori-darmonlarning qariyb 40–47% o'simlik xom ashyolaridan olinadi. Shuningdek, ayniqsa, hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda dorivor o'simliklarning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Dorivor o'simliklarni qidirib topish va ulardan dorivor preparatlar tayyorlash ishlari asta-sekinlik bilan yo'lga qo'yilmoqda. Shu jumladan, yurtimizda ham sohaga oid ko'pgina amaliy ishlar qilinmoqda. Bular qatorida mahalliy tilda “romashka” deb ataladigan *Matricaria chamomilla* ham muhim o'rin tutadi.

Dorivor o'simlik – *Matricaria chamomilla*ni o'stirishda abiotik omillarning ta'siri o'rganib chiqildi va dorivorlik xususiyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot metodi va metodologiyasi (Research method and methodology)

Matricaria chamomilla - janubiy va sharqiy Yevropada paydo bo'lgan *Asteraceae* oilasining a'zosi hisoblanadi. U barcha qit'alarda uchraydi. Uning ilmiy (lotin) nomi *Matricaria* (“bachadon o'ti”) lotin tilidan (“bachadon”) nomidan kelib chiqqan bo'lib, bu o'simlikning ginekologik kasalliklarni davolashda an'anaviy ishlatilishi bilan izohlanadi. Bu nom birinchi marta shvetsariyalik botanik va shifokor Albrecht fon Haller (1708-1777) tomonidan ishlatilgan. Uning poyasi shoxlangan, tik va silliq bo'lib, balandligi 15–60 sm (6–24 dyuym) gacha o'sadi. Uzun va tor barglari ikki yoki uchburchakdir. Gullar panikulyar gul boshlarida (kapitulada) joylashgan. Gullari yoz boshidan o'rtasiga qadar gullaydi va xushbo'yliги bilan ajralib turadi. Gullarning efir moyi ularga o'ziga xos hid beradi va qiziqarli xususiyatlarga ega. Yog'ining ko'k rangi, tarkibidagi chamazulen moddasi bilan bog'liq bo'lib, o'simlik nima uchun ko'k romashka umumiy nomi bilan ham tanilganligini tushuntiradi. Mevasi sarg'ish-qo'ng'ir rangda bo'ladi. May oyidan boshlab kuzgacha gullaydi.

O'simlik sistematikasi:

O'simliklar dunyosi-Flora-Plantae

Bo'lim-Angiospermae (yopiq urug'lilar)

Sinf-Dicotyledones (ikki urug'pallalilar)

Oila-Asteraceae

Turkum-Matricaria

Tur – Matricaria chamomilla

Dorivor moychechak astradoshlar – asteracea (murakkabguldoshlar) oilasiga mansub bo'lib, bir yillik o't hisoblanadi. Poyasi tik o'suvchi, sershox, ichi kovak. Bargi ikki marta patsimon ajralgan, segmentlari ingichka chiziqsimon, o'tkir uchli. Savatcha chetidagi gullari oq, tilsimon, o'rtadagilari esa ikki jinsli, sariq, naychasimon. Mevasi – qo'ng'ir-yashil pista. Dorivor moychechak keng tarqalgan bo'lib, u asosan o'tloqlarda, ekinzorlarda (begona o't sifatida), yo'l yoqalarida va xonadonlarda ham uchraydi. Asosan, Rossiyaning Yevropa qismining janubida, Kavkaz, Qrim, Ukraina, Sibirning janubiy tumanlarida va jumladan, O'rta Osiyoda ham uchraydi. O'zbekistonda ham ekinzorlarda mahalliy aholi ekib o'stiradi. Moychechak juda tez ko'payadi. O'simlikning kimyoviy tarkibiga to'xtaladigan bo'lsak, savatchasida to'plangan gullar tarkibida 0,22-0,8 % efir moyi, apiin, kversimeritrin, kversetin, lyuteolin va boshqa (35 tagacha birikmalar) flavonoidlar, gvayyanolid guruh laktonlaridan matrikarin va matritsin, geterotsiklik halqali poliin laktonlar, proxamazulen, qumarinlar, karotin, vitamin C, achchiq moddalar ham uchraydi. Moychechak ichaklarning yopishib qolishi (ichaklar spazmi)ga, mikroblarga allergiyaga va yallig'lanishga qarshi hamda yaralarni davolovchi ta'sirga ega. Shuning uchun uning dorivor preparatlari me'da-ichak (ichak yopishib qolganda va ich ketganda) va ginekologik kasalliklarni davolashda hamda ter va yel haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Bulardan tashqari, moychechak guli yumshatuvchi,



antiseptik va yallig'lanishga qarshi (og'iz, tomoqni chayqashda, shifobaxsh vanna hamda klizma qilishda) vosita sifatida ham qo'llaniladi.

Tadqiqot natijasi va muhokama (Research result and discussion)

Bir qator ilmiy izlanishlar natijasida dorivor moychechak asosan, tuproqning qisqa muddatli qurishiga bardosh berishi aniqlandi va shuningdek, issiq va biroz nam tuproqda yaxshi rivojlanishi kuzatildi. Bu esa ildiz tarmoqlari yaxshi rivojlanganligi va tuproqdagi suv va unda erigan mineral moddalarni yaxshi o'zlashtirib olishidan dalolat beradi. Shuningdek, shamol va qishning sovuqligiga chidamli o'simlik ekanligi kuzatildi. Moychechak urug'lari ekilgandan so'ng namlik yetarli bo'lmasa, urug'lar uzoq vaqtgacha unmasligi mumkin. Shuningdek, havoning iliq harorati, tuproq namligi va tuproqdagi oziqa elementlar o'simlikning unib chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Moychechak uchun tuproq sho'rlanish darajasi kam bo'lishi kerak, shuning uchun bizda hosili biroz kamroq olindi.

Ishlatilishi: Moychechak gulidan (savatchalardan) damlama tayyorlanadi. Savatchalar me'da kasalliklarida, tomoq chayqashda ishlatiladigan va yumshatuvchi yig'malar – choylar tarkibiga kiradi. Moychechak guli tarkibidagi kimyoviy birikmalar kompleksi (xamazulen, matritsin, apigenin, gerniarin va boshqalar) ta'sir etuvchi qism hisoblanadi. Xamazulen tinchlantiruvchi xossaga hamda ichaklarning yopishib qolishi, allergiyaga va yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega. Apigenin, apiin va gerniarinlar ham ichaklarning yopishib qolishiga ta'sir qiladi. Moychechak damlamasi asablarni tinchlantirishda koni foyda. Damlamasini kattalar va bolalar ham ichishi mumkin va albatta me'yorni unutmagan holda. Damlamasini tayyorlash uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

1) Moychechakni terib olingandan so'ng quritiladi va quruq joyda saqlanadi.



2) O'simlikning savatchalarini olib 200 ml qaynagan suvga 10-15 gr moychechak solinadi va 15 daqiqaga tinch holda qo'yiladi.

Tayyor bo'lgan damlamani ichishingiz bilanoq sizdagi bosh og'rig'i kamayib, asablaringiz tinchlanganini his qilasiz. Shuningdek, me'da-ichak tizimida og'riqlar kuzatiladigan kishilar ham damlamani ichishi tavsiya etiladi.

Xulosa (conclusion)

Matricaria chamomilla – dorivor moychechak Asteraceae oilasiga mansub, bir yillik dorivor o't osimlik sanaladi. Bir qator imiy izlanishlar va tajribalardan shu ma'lum bo'ldiki, jumladan, dorivor moychechak sho'rlangan tuproqlarda ham kam miqdorda o'sishini kuzatdik. Buxoro vohasining tuproqlari sho'rlanganligi sababli, o'simlik hosili birmuncha kamroq olindi. Shuningdek, shamolga va qishning sovuqligiga chidamli ekan. Yorug'sevar o'simlik va soyada ham o'sishi mumkin. O'g'itlar talab qilishiga keladigan bo'lsak, ayniqsa, mahalliy go'ng va fosforli o'g'itlarga talabchan hisoblanadi. Namlik ortiqcha bo'lsa tuproqda havo almashinuvi yomonlashuvi natijasida o'simlikka ham yomon ta'sir qiladi. Moychechakda ham namlik miqdorini inobatga olish kerak va seryomg'ir paytlarda barglari yiriklashishi kuzatildi.

O'simlikning shifobaxshlik xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, oshqozon-ichak yo'llari bilan bog'liq kasalliklarda keng ishlatiladi va asosan ichaklar spazmi hamda tomoqni chayqashda, asabni tinchlantirish xususiyatiga ega.

Umuman olganda, hozirgi kunda dorivor moychechakdan mahalliy tabobatda va tibbiyotning boshqa yo'nalishlarida keng foydalanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'. Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, D.Mustafakulov. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya – Toshkent, 2018. 111-114- betlar





2. Xolmatov X.X, Habibov. O'zbekiston dorivor o'simliklari – Toshkent, 1971.

3. Murdaxayev Yu.M. O'zbekistonda vatan topgan dorivor o'simliklar. Toshkent, 1990.

4. A.E.Xolliyev, S.B.Bo'riyev, U.T.Norboyeva – O'simliklarda suv almashinuvi. Buxoro, 2006. 87-bet

5. Ibrohimovna U. G. Et al. MEDICINAL PLANT-MELISSA OFFICINALIS //Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2024. – T. 2. – №. 12. – C. 76-79.

6. Ibrohimovna U. G., Fatullayevna K. L. MEDICINAL PLANT-ALOE VERA (ALOE BARBAODENSIS) //British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – 2024. – T. 26. – C. 74-77.

7. Usmonova G., Ochilova G. MEDICINAL PLANT-MOUNTAIN BASIN (ORIGANUM VULGARE) //International Scientific and Current Research Conferences. – 2021. – C. 06-09.

8. Usmonova G. I., Ochilova G. A. TUPROQNING BIOLOGIK FAOLLIGIDA MIKROORGANIZMLAR ROLI //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 63-67.

Web site

<https://avitsenna.uz/romashka-moychechak-dorivorligi>

https://en.wikipedia.org/wiki/Matricaria_chamomilla